

ELEMENTS OF CULTURE: AL-BUKHARI AND AL-GHAZALI

F. G'. Bozarova

Al Bukhari University Department of Social Sciences and Humanities dots.v.b.

Abstract: Today, there is hardly anyone who has not heard of Imam al-Bukhari and his collection Al-Jame' as-Sahih. Those who do not know that al-Bukhari's collection has the status of the most reliable book after the Qur'an are invaluable. Another leader of the Eastern world, Imam al-Ghazali, was a great scholar, benefactor and benefactor of his time. Both are great thinkers who have made invaluable contributions to Islamic culture and teachings. Although it is possible to write many works to fully reveal all aspects and collections of the lives of scholars, in this article we will try to summarize our thoughts and shed light on their unique lives and works of precious power.

SHARQ MADANIYATINING DARG'ALARI: AL-BUXORIY VA AL-G'AZZOLIY

F. G'. Bozarova

Al Buxoriy universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dots.v.b.

Bugungi kunda Imom al-Buxoriy va uning "Al jome' as-sahih" to'plami haqida eshitmaganlar topilmasa kerak. Al-Buxoriyning to'plami, Qur'oni Karimdan keyingi eng ishonchli kitob maqomiga ega ekanligini ham bilmaganlar yoq hisob. Sharq olamining yana bir darg'asi – hujjat ul-Islom Imom al-G'azzoliy bo'lib o'z davrining yirik allomasi, hayri va barakoti bo'lgan. Har ikkisi ham Islom madaniyati va ta'limotiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlardir. Garchi allomalar hayotining barcha qirralarini va to'plamini to'liq ochib berish uchun ko'plab asarlar yozish mumkin bolsada ushbu maqolada fikr-mulohazalarimizni umumlashtirib, baholi qudrat ularning o'ziga xos hayoti va ijodini yoritib berishga harakat qilamiz.

Shunday qilib xalqimizning islomiy madaniyatini yuksaltirishga va hadisshunoslik rivojiga beqiyos hissa qo'shgan muhaddis olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Isma'il ibn Ibrohim ibn Al-Mugiyra ibn Bardizboh Al-Jufiy Al-Buxoriy hijriy 194 yil 13 Shavvol (810 yil 20 iyul) juma kuni Buxoroda tug'ilgan. Imom Al-Buxoriy ajdodlari kelib chiqishiga ko'ra forsiy, e'tiqodiga ko'ra zardushtiylardan edi. Katta bobosi Al-Mugira Islomni Buxoro hukmdori Yaman Al-Jufiy sabab bo'lib qabul qilgan. O'sha vaqtdagi go'zal an'anaga ko'ra islomni kimdan qabul qilsa o'sha ota o'rnida hurmat qilingan va bu ismida ko'rsatilgan.

Allomaning otasi Ismoil Malik ibn Anasning hamkasbi bo'lgan, u o'z davrining yetuk hadis bilimdoni edi. Afsuski, dadasi Muhammad bolaligida vafot etgan, uning hadis kitoblari esa o'g'luga meros bo'lib qolgan. Manbalarda Muhammad bolalik davrida ko'rish qobiliyatini yo'qotganligi haqida aytiladi. Biroq, onasining Allohga bo'lgan uzoq iltijolari va ibodatlarini tufayli, uning ko'zlari mo'jizaviy tarzda tiklanadi. Bir kuni onas tushida hazrat Ibrohim (a.s.) ko'radi, unga:"sizning uzoq iltijolaringiz tufayli Alloh o'g'lingizga shifo berdi" deb aytadi. Vaqti soati kelib mazkur tushning xosiyatli va bashoratli ekanligi ayon bo'ldi.

Bo'lajak olim 16 yoshida Abdulla Ibn muborak to'plamlarini o'rgangach, akasi va onasi bilan Hajga boradi. Xajni amalga oshirgach, u Makkada ikki yil qoldi, 18 yoshida Madinaga boradi, u yerda "Kadayas-Sahaba ayat-Tabiin" va "Tarix-ul-Kabir" kitoblarini yozish uchun Payg'ambar (s.a.v.)ning qabri yonida tunlarni o'tkazdi. Asarlarni yakunlagach yangi bilimlar ishtiyogida al-Buxoriy juda ko'p sayohat qildi. Jumladan, Suriya va Misrga ikki bor safar qildi, olti yil davomida Arabistonda yashadi. U Kufa, Bag'dod va Basra shaharlarida to'rt marotaba bo'lib, u erda besh yilga qoldi. Har yili Xaj mavsumida, Makkaga qaytib kelardi.

Imom Buxoriy tomonidan yozilgan ko'plab asarlar ichida, "Sahih-ul-Buxoriy" to'plami alohida o'rin tutadi. "Sahih-ul-Buxoriy" ning yakunlangan sanasi noaniq. Ammo, ushbu kitob yozilgandan so'ng muallif

o'z ishini o'z ustozlari Imom Ahmad Ibn Xanbaliy, Ibn-ul-Madiniga taqdim qilgan. Tahminan o'shanda al Buxoriy 23 yoshda bo'gan.

Al Buxoriy noyob xotiraga ega edi ma'lumki, bolaligida u 2000 hadisni yod olgan. Bir kuni Imom Buxoriy Bag'dodga kelganida, uning ko'p yutuqlari va fazilatlarini haqida eshitgan odamlar uni tekshirishga qaror qilishdi. Buning uchun ular yuz xil hadisni tanladilar. Mazkur hadislar matnlari va sanadlarini o'zgartirib, o'qib berish uchun o'n kishini tanladilar. Ushbu sinov natijasini ko'rish uchun shahar va qishloqlardan ko'plab odamlar to'plandi. Bu hadislar o'qilganida, al Buxoriy hammaga bir xil javob berar: "men bilishimcha, bu to'g'ri emas", der edi. Barcha hadislar o'qilgandan so'ng esa al Buxoriy har bir o'zgartirilgan hadisni va har bir o'zgartirilgan sanad zanjirini o'zi aytib bergan.

Al-Buxoriy nafaqat ilmi, balki go'zal axloqi jihatidan ham namuna bo'lgan. Bir kuni olim eshik oldida o'tirganda xonaga kirayotgan xizmatkor unga qoqilib ketadi: "ehtiyot bo'ling, qaerga borayotganingizni ko'ring"- desa, ayol unga kibr bilan: "joy yo'q bo'lsa, qanday qilib yurishim kerak?" deb javob berib. Buni eshitgan olim Buxoriy qo'llarini yuqoriga ko'tarib: "endi sizga xohlagan joyga borish erkinligini berdim, chunki bundan buyon siz ozodsiz" deb xitob qilibdi. Yaqin insolaridan bu voqea haqida, buni g'azablanganingizdan aytdingizmi, deb so'raganida: "yo'q, men o'z xatti-harakatlarim bilan o'zimni xursand qildim", deb javob bergan ekan. Bundan tashqari Al Buxoriy: "men zulmning taqiqlanganligini eshitishim hamono to bugungi kunga qadar undan qochib kelmoqdaman", degan ekan, bu olimning ilmiga amal qilish kabi yuksak fazilat sohibi ham bo'lganligini namoyon qiladi. Darhaqiqat, ilmni hurmat qilgan olim bo'ladi. Al Buxoriyda shunday hurmat shu darajada yuksak ediki, hatto Buxoro hukmdori olimdan o'z farzandlariga ta'lim va tarbiya berish uchun saroyiga kelishini bir necha bor so'raganida, "men odamlarga qaraganda ilmga ko'proq hurmat ko'rsataman, chunki ilmga odamlar muhtoj, uni olishga ular harakat qilishlari kerak", deb javob berganligini va bu javobi olimni, keyinchalik ona yurti Buxoroni tark etishiga majbur qilganligini bilamiz

Xulosa o'rnida mazkur mutafakkirlar ilmiy va diniy asarlari butun basharga tegishlidir. Zero, ular o'zining boy ma'naviy asosiga ko'ra universal, aniq bir davr chegarasidan tashqari amal qiladi. Mazkur ma'naviy meros bugungi kunda bizga ochilgan va ochilmagan qirralari, dolzarb jihatlarini zamonaviy jamoatchilikka taqdim qilish, falsafiy mohiyatini tadqiq qilish – zamonaviy intellektuallar oldida turgan muhim vazifa sanaladi.

Adabiyotlar

1. Al-Gazali M. Kimiya-iy sa-adat («Eliksir schasty»). SPb.: Peterburgskoye vostokovedeniye, 2002. Ch. 1. 14 s.
2. Kerimov G.M. Al-Gazali: religiozno-filosofskiye vzglyadi//Gosudarstvo, religiya, Serkov v Rossii i za rubejom. 2010. №2. S.227-240.
3. Hasan Ayik. Gazali'nin eleştirileri felsefeyi bitirdimi? Dinbilimleri Akademik Araştırma Dergisi, IX. 2009 y.
4. J.Schacht. C.E.Bostworth. The legacy of Islam. Oxford,1974.
5. M. Edwars. East-West passage. The travel of ideas, arts and inventions between Asia and Westrn World, New York. 1971.